

JINOYAT UCHUN JAZO MUQARAR



JINOYAT UCHUN JAZO MUQARAR

Jazo berishdan avval har doim gunohdan o'tishning iloji yuqmikan, deya o'ylab ko'rish lozim. G.LIXTENBERG

Yurtimizda azaldan insonparvarlik tamoyillari, inson sha'ni va qadr qimmatini oliy masala sifatida baholangan.

Jinoyat uchun jazo choralarini qo'llash to'g'risidagi qonunlarga og'ishmay amal qilish sudlarning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Jazo adolatli bo'lishi — har bir holatda individual tayinlanishi, jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga, aybdorning shaxsiga, shuningdek jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarga muvofiq bo'lishi kerak.

Adolatli jazo tayinlanishi undan ko'zlangan maqsadlarga — mahkumni axloqan tuzatish, mahkum va boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga erishish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jinoyat va jazo masalalarini hal qilishda ayblanuvchi shaxsini o'rganishning ahamiyati kattadir.

Bu sud harakatlarining samarali uslubini ishlab chiqish imkonini beradi, qolaversa ish

bo'yicha haqiqatni to'la aniqlash, adolatli hukm chiqarish, shaxsni qayta tarbiyalash hamda jinoyatchilikning oldini olishga ko'maklashadi.

Sud protsessida ayblanuvchining shaxsini mukammal o'rganish uning ruhiy xususiyatlarini, shaxs sifatida shakllanish jarayonlarini o'rganishlikni talab qiladi. Ayblanuvchi shaxsining faqat salbiy xususiyatlarini o'rganishga cheklanmasdan, balki undagi mavjud ijobiy fazilatlarini o'rganish xolis hukm chiqarish uchun g'oyat muhimdir.

Faqat asosli va odilona jazo tayinlash orqaligina jamiyatni jinoiy xurujlardan samarali himoya etish, sudlanganlarni tuzatish va qayta tarbiyalashga erishish, sudlanganlar hamda boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishni ta'minlash mumkin.

Jamiyatimizda shaxsni tarbiyalash orqali sog'lom muhit yaratish vazifasi, nafaqat sudlarning, balki keng jamoatchilik, qolaversa, har bir fuqaroning burchi ekanini unutmaslik lozim.

Ikrom ShAYMANOV

Jinoyat ishlari bo'yicha Termiz shahar sudining raisi